

YOR-YOR JANRI VA XALFACHILIK SAN'ATI

Ruxshona Saydullayeva

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

O'zbek xalq og'zaki ijodi tuganmas bir buloq. Uning ko'zidan to'xtovsiz qaynab-toshib chiqayotgan obi-hayot necha-necha asrlardan buyon shu xalq ma'naviyatini boyitib, idrokni barkamollashtirib kelayapti. Inson mol-dunyosiz, zebu-ziynatsiz hatto ochlikka, qiyinchilikka chidab yashashi mumkindir, lekin o'tmish madaniyatisiz, san'atisiz yasholmaydi.

Yaxshi kunlarini, yomon kunlarini xotiralab o'zini nima bilandir ovutib kun kechiradi. To'y o'zbek xalqi hayotidagi eng unitilmas, eng quvonchli kun hisoblanadi. To'y kuni barcha qarindosh-urug'lar, yig'ilishadi, orada o'tgan gina-qudratlarga barham beriladi. O'zbek to'ylari orasida eng serzavq va qiziqarli o'tadigani kelin tushirish to'ylari hisoblanadi.

Juda qadim zamonlardan boshlab, hatto odamlar ongi unchalik taraqqiy etmagan vaqtlarda ham oila juda bir muqaddas dargoh sifatida ardoqlangan. Qiz chiqarar oqshomida har xil urf-odatlar amalga oshirilgan, "soch siypatar", "yuz ko'rsatar", "oyoq bosdi" va hokozolar.

Kelin to'ylardagi urf-odatlar bir millatning o'zida turli xil usulda o'tkazilgan. To'ylarda aytiladigan "Kelin salomlar", "Yor-yor"lar ham turli joylarda turli ohangda aytilgan va aytilib kelinyapti. Masalan, Xorazm vohasidagi kelin to'ylarda "Yor-yor"larni ko'proq xalfalar ijro etishadi.

Bu voha to'ylardagi urf-odatlarda, Yor-yor, kelin salom aytishlarda, boshqa vohalardan juda katta farq sezilib turadi. Xorazm vohasi kishilariga xos xushchaqchaqlik, satira va yumorga o'chlik xalq qo'shiqlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalfalar ijro etayotgan "Yor-yor"larda "Yor-yor" qoshimchasi ko'pincha tushirib qoldiriladi, aytilmaydi.

Xorazm vohasida yor-yorlarning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa voha yor-yorlaridan farq qiluvchi tomonlari mavjud. Boshqa vohalardagi kabi Xorazmda ham yor-yorlarni, asosan, ayol Xalfalar ko'proq ijro etadilar, Xalfachilik san'atining o'zi uzoq tarixga ega.

Xalfalar ko'proq jamoa bo'lib, xalq qo'shiqlarini ijro etishgan ustoz xalfa garmon chalib kuylaydi, ikkinchi Xalfa doira chalib unga jo'r bo'ladi, uchinchi o'ynaydi. Xorazm Xalfachilik san'atida, ayniqsa, qayroq bilan raqsga tushish ancha ommalashgan.

Xorazmda nikoh kechalarida xalfalar ayollar o'tirgan xonaning to'riga o'tirib basma-basiga, biri aytganiga biri javob aytib kun botgandan to tong otgunga qadar aytishuv qilganlar. Xorazm xalfalari ko'pincha ikki piyolani bir-biriga urib, undan chiqayotgan ovozga jo'r bo'lib ham qo'shiq kuylaydilar, xalfalarining jarangdor, sehrli

ovozi, piyolaning nozik va o'ynoqi tovushi bilan qo'shilib ajoyib san'at namunasini yaratadi.

Xalfalar nafaqat yor-yorlarni ijro etishadi, ayni chog'da dostonlarni, g'azal va she'rlarni ham juda mahorat bilan kuylashadi. Xorazm yor-yorlarida ham o'tmishdagi nusxalari bilan sovet hokimiyati yillarida yaratilgan yor-yorlar o'rtasida keskin farqlar uchraydi. Masalan Xonimjon Xalfaning shogirdi Onajon

xalfa kuylagan "Paranji", "Kolxozchi qiz", "Kolxozchi qadrdonlar" kabi bir turkum yor-yorlar ancha sayoz mavzu doirasi tor, badiiy saviyasi past "yor-yor"lardir. Xorazm vohasining tarixi, madaniyati ming-ming yillarga borib taqaladi, bu yurtda ne-ne voqealar bo'lmagan deysiz? Bu elda istiqomat qiluvchi kishilar qonida ulug' iste'dodlar, donishmandlar qoni oqmoqda. Shuning samarasi o'laroq yor-yorlardagi umumiy ruh boqiy, falsafiylik kuchli, mavzular o'lmas.

"Har yerda sozanda bo'lsa yig'diring,
Nahray qoqib, shodiyona qurdiring,
Sarpay bayroq berib kurash tushdiring,
Javob berdim, o'tlar bo'lsin to'yingiz,
Ondim so'ngra ustalarni oldiring,
Mening uchun koshku ayvon soldiring,
Oltin kumush quyib tokcha o'ydiring,
Boring o'nqlar bo'lsin to'yingiz".

Ko'ryapsizki, Xorazm vohasi yor-yorlari boshqa vohalardagi yor-yorlardan ancha keskin farq qiladi. O'zbekistonning boshqa hududlarida aytiladigan to'y qo'shiqlarida asosiy lirik qahramon kelin yoki kuyov hisoblanadi. Xorazm yor-yorlarida esa qaynota, qaynona tilidan ham "yor-yor"lar kuylanaveradi. Yana bir harakterli jihati shundaki, Xorazmda "Qudalar qo'shig'i" deb nomlanadigan turkum ham mavjud. Xorazm vohasi yor-yorlarida badiiy tasvir vositalari ham o'ziga xos yo'sinda qo'llaniladi, sifatlash, o'xshatish, mubolag'a, jonlantirish, metaforalar juda o'rnida ishlatiladi.

Kelinning onasi tomonidan kuyoviga aytilayotgan yor-yorga e'tiborni qarating-a?!
"Dushmanning so'ziga siz quloq tutmang,
Mening bergan nasihatim unutmang,
Injitmang koyimang qattiq so'z demang,
Asrab boqqan erka qizim sizniki,
Uyim, elim, archa-bo'g'cham sizniki".

Bo'lajak qaynona kuyov uchun bor mehrini berib dunyodagi barcha aziz narsalardan, qizi bilan totuv yashashlarini ustun qo'yayapti, xullas odamiylik, insonga xos xislatlar bu qo'shiqda o'z aksini topayapti.

Kuyov onasi tomondan bo'lajak kelinga aytilayotgan mana bu misralarga e'tiborni qarating-ga!

"Kelinbika qurbon bo'lay bo'yingga,
Asrab boqqan erka o'g'lim sizniki,
Ko'hna davlat keldi sening uyingga,

Uyim, elim, molu-mulkim sizniki”.

Yigitning onasi ham dunyodagi barcha aziz narsalardan o‘zaro totuvlikni ustun qo‘yayapti, kelin-kuyov baxti-saodati uchun bu qadar fidoiylilik boshqa vo‘ha yor-yorlarida boshqacharoq shakllarda uchraydi:

“Singlim tushgan joylarga,
Oy bo‘layin yor-yor,
Kuyov chekkan chilimga,
Nay bo‘layin yor-yor”.

Fidoyilikni qarangki, egachisi singlisi tushgan o‘lkaga hatto oy, kuyov chekayotgan chilimga nay bo‘lishga ham tayyor. Uning uchun faqat kelin-kuyov baxtli bo‘lsa bas. Albatta, yor-yor aytgan bilan yoki to‘y kechasi soatlab tilak bildirgan bilan kelin-kuyov baxtli bo‘lishiga kafillik berib bo‘lmaydi, lekin qadimiy xalq qo‘shiqlaridagi odob-axloqqa xos, sabr-toqatli bo‘lishga xos ohanglar yangi hayot ostonasida turgan yoshlarni baribir ham e‘tiborsiz qoldirmaydi.

Bizning xalqimiz urf-odatlarida qaynota-kuyov, qaynona-kelin munosabatlari anchagina murakkab kechadi, bu holat Xorazmda yanada murakkabroq. Yangi kelin bir yil davomida o‘z qaynonasi bilan og‘iz ochib gaplashmaydi, o‘g‘il o‘stirganning xizmatlarini ado etadi, topshiriqlarini bajaradi, ammo churq etib og‘iz ochmaydi. Bu urf-odatlar odobning oliy namunasi, ota-bobolarimiz madaniyatining ko‘zgusi hisoblanadi.

Xorazm vohasidagi kishilar ruhiyati ularning ichki dunyosi, ma‘naviyati, bevosita shu yurt urf-odatlari bilan bog‘lanib ketgan, bu bog‘liqlikni hecham ajratib bo‘lmaydi. Xorazmda Xalfalar tomonidan kuylanadigan yana bir janr bu “lapar janri” hisoblanadi, laparlarni ko‘pgina nazariy adabiyotlarda “yor-yor”lar bilan bitta janr sifatida ko‘rsatiladi. Lekin laparlarning o‘z aytilish usuli, tematikasi mavjud, yor-yorlar esa o‘ziga xos tadrijiy taraqqiyot yo‘liga ega.

Xalq og‘zaki ijodida juda katta o‘rin tutuvchi “yor-yor” janri adabiyotda o‘ziga xos mavqega, o‘ringa ega. Lekin Xorazm vohasi “yor-yor”lari olimlarimiz tomonidan hali yetarlicha o‘rganilgani yo‘q deb o‘ylayman. Folklorshunos olim T.Qilichev “Xorazmda nikoh to‘yi qo‘shiqlari va Xalfalar ijodi” maqolasida juda yaxshi fikrlar bildirgan edi⁴³.

Lekin keyingi yillarda bu sohada salmoqli tadqiqotlar yetarlicha qilinmadi hisob. Mustaqil Respublikamizning har tomonlama rivojlanishida, barkamol yosh avlodning yetishuvida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyos.

Shunday ekan, olimlarimiz tomonidan bu sohani chuqurroq o‘rganishga fursat yetdi deb o‘ylayman.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirzaev T. va boshqalar. O‘zbek folklori. –Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”, 2020.

⁴³ Qilichev T. Xorazmda nikoh to‘yi qo‘shiqlari va Xalfalar ijodi. T.: O‘zbek tili va adabiyoti. 1985. №6. B.41

2. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: “Fan”, 2009.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –T.: “Mumtoz so'z”, 2010